



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



No 8  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariysi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi (sohalalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariysi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariysi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariysi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 224 sahifa,  
1-avgust, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirlari

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

Gafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjayev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmasi boshlig'inining birinchi

o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiysi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiysi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

# MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
Abduraximov Doniyor Abdu said o'g'li	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi .....	30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar mакtablarining zarurati va ahamiyati .....	33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv .....	39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari .....	44
Maydonova Saboxat Sadulloyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies.....	52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari .....	55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida .....	59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni .....	65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi	
Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....	68
Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....	72
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....	76
Boypolvonov Barot Djonqobilovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini.....	81
Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....	86
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri .....	90
Jumanova Ug'iloy Sodiqjonovna	
Oly ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....	96
Koshayeva Sansabila Kamiljanovna	
Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....	100
Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati .....	105
Murodova Madina Karim qizi	
Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari .....	108
Ortiqov Mironshoh Sodiqovich	



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda	
Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lrim tizimiga tatbiq etish.....	110
Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna	
O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....	115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna	
Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika .....	120
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi .....	123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati .....	128
Yusupov Ulug'bek Kadirovich	
Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda	
motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish .....	132
F. Zaynabuddinov	
Razvitiye polikultural'noy kompetentnosti studentov v obrazovatel'noy srede vuz'a .....	135
Kireeva Elvina Flaritovna	
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar .....	140
Sanayev Gayrat Shermuxamedovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning	
pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish .....	144
Boybo'riyeva Saodat O'rakovna	
Kattalar ta'limi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yo'nalishlari .....	148
Davletova A.	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'limi rivojlantirishning huquqiy asoslari .....	152
Ganiyeva Gulruk Tavakkaljon qizi	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish .	156
Madmarova Gulchexra Qodirovna	
O'lakashunoslik materiallarining oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish .....	160
Mamajonov Mo'minjon	
Muhandislik grafikasi darslarida o'quv faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan innovatsion modeli .....	165
Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi	
Sun'iy intellektga asoslangan ta'limi resurslarning pedagogik imkoniyatlari.....	169
Muhiddinov Muhriddin Nuriddin o'g'li	
Ijod maktablari o'quvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda	
interfaol metodlarning ahamiyati.....	173
Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna	
Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini,	
ularning o'yin ampliasini hisobga olgan holda aniqlash usullari .....	178
Odilova Feruzaxon Valijon qizi	
PIRLS baholash tizimini qo'llash vositasida mustaqil o'qishga o'rgatishda	
IMEN texnologiyalaridan foydalanish.....	184
Olimjonova O'g'ilxon Abdurasul qizi	
Yoshlar o'tasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya	
zamonaviy Maugli sindromining klinik ko'rinishlari .....	188
Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich	
Boshlang'ich maktabda o'zbek tili darslarida differensial ta'limdan foydalanishning	
pedagogik shart-sharoitlari .....	192
Rasulova Nozigul Abdovich qizi	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini takomillashtirish .....	196
Sharsofova Nilufar Ilhom qizi	
Xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim samaradorligini oshirishning	
pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida) .....	200
Tuxtasinova Munira Ibragimovna	
Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlang'ich sinflarda shakllantirish	
va o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....	204
Umarova Madinabonu Bahodir qizi	

O'smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari .....	208
<i><b>Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi</b></i>	
Nofillologlarni (filolog bo'limganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o'rgatish maqsadida	
zamonaviy inglez tilining lingvometodik tahlili.....	214
<i><b>Zarina Itolmasova</b></i>	
Forsayt va qaror qabul qilishni bog'lovchi kognitiv komponentlar.....	219
<i><b>Hasanova Sumanbar Hamroqulovna</b></i>	

# YOSHLAR O'RTASIDA INTERNET QARAMLIGI VA IJTIMOIY IZOLYATSIYA ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMINING KLINIK KO'RINISHLARI

Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich

Toshkent tibbiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Maqlada internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya holatlari zaminida shakllanayotgan "Zamonaviy Maugli sindromi"ning yoshlar psixikasida namoyon bo'ladigan klinik ko'rinishlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yosh avlod vakillarining virtual hayotga haddan tashqari bog'lanib qolishi natijasida yuzaga kelayotgan regressiv rivojlanish belgilariiga, jumladan, identitet diffuziyasi, emotsiyal empatiyaning pasayishi, kommunikativ disfunktsiyalar, shaxslararo aloqalarning susayishi kabi simptomlarga alohida e'tibor qaratiladi. Maqlada ushbu sindromni aniqlash uchun psixodiagnostik mezonlar, klinik belgilari va psixologik reabilitatsiya imkoniyatlari tahlil qilinib, bu holatning yoshlar ruhiy salomatligiga ta'siri tizimli yondashuv asosida ilmiy-nazariy va amaliy asosda o'rganiladi.

**Kait so'zlar:** internet qaramligi, ijtimoiy izolyatsiya, Zamonaviy Maugli sindromi, klinik simptomlar, identitet diffuziyasi, emotsiyal empatiya, regressiv rivojlanish, yoshlar psixologiyasi, kommunikativ disfunktsiya, psixodiagnostika, reabilitatsiya.

**Abstract:** This article presents an in-depth analysis of the clinical manifestations of the so-called "Modern Maugli Syndrome," which emerges in the context of internet addiction and social isolation among youth. The study pays special attention to signs of regressive development resulting from excessive engagement in virtual life by young individuals, such as identity diffusion, decreased emotional empathy, communicative dysfunctions, and weakening of interpersonal relationships. The paper also outlines psychodiagnostics criteria, clinical features, and psychological rehabilitation possibilities for the identification and correction of this syndrome. The impact of this condition on youth mental health is examined through a systematic, theoretical, and practical scientific approach.

**Key words:** internet addiction, social isolation, Modern Maugli Syndrome, clinical symptoms, identity diffusion, emotional empathy, regressive development, youth psychology, communicative dysfunction, psychodiagnostics, rehabilitation.

**Аннотация:** В данной статье проводится углублённый анализ клинических проявлений так называемого "Синдрома современного Маугли", формирующегося на фоне интернет-зависимости и социальной изоляции среди молодежи. В рамках исследования особое внимание уделяется симптомам регрессивного развития, возникающим в результате чрезмерной вовлеченности молодого поколения в виртуальную жизнь, таким как диффузия идентичности, снижение эмоциональной эмпатии, коммуникативные дисфункции и ослабление межличностных связей. В статье также рассматриваются психодиагностические критерии, клинические признаки и возможности психологической реабилитации, направленные на выявление и коррекцию данного синдрома. Воздействие синдрома на психическое здоровье молодежи анализируется на основе системного, научно-теоретического и практического подхода.

**Ключевые слова:** интернет-зависимость, социальная изоляция, синдром современного Маугли, клинические симптомы, диффузия идентичности, эмоциональная эмпатия, регрессивное развитие, психология молодежи, коммуникативная дисфункция, психодиагностика, реабилитация.

## KIRISH

Zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi va internetning inson hayotining deyarli barcha jabhalariga chuqur kirib borishi natijasida psixologik sog'lomlik va shaxs rivojiga bo'lgan xavflar dolzarb muammo sifatida shakllanmoqda. Xususan, yoshlar orasida kuzatilayotgan internetga haddan tashqari qaramlik, ularning real ijtimoiy muhitdan chekinishi, ruhiy-psixologik izolyatsiyaga tushib qolishi va virtual shaxsiyat modeliga moslashuvi natijasida yuzaga kelayotgan kompleks sindromlar zamonaviy psixologiya va psixiatriya fanida chuqur tahlil qilinishi zarur bo'lgan fenomenlar sirasiga kiradi. Ulardan biri sifatida so'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda "Zamonaviy Maugli sindromi" deb nom olgan regressiv-psixodinamik holat ilmiy tadqiqot

obyekti sifatida e'tiborni tortmoqda. Mazkur sindrom o'z mohiyatiga ko'ra, ilgari faqat biologik izolyatsiyada – ya'ni jamiyatdan butkul uzelgan holda o'sgan bolalarda (klassik "Maugli effekti") kuzatilgan klinik-psixologik belgilarning raqamli izolyatsiya sharoitida qayta shakllanishi bilan tavsiflanadi. Bunda shaxsning rivojlanish yo'nalishi va psixodinamikasi virtual muhitning simulyativ, ya'ni real hayotdan yiroqlashtiruvchi xususiyatlari bilan belgilanishi, yosh organizmning emotsiyonal va kommunikativ kompetensiyalarining to'laqonli shakllanmasligi, shaxsiy identitetning diffuziv tus olishi kuzatiladi.

Ayniqsa, yoshlari – o'sib kelayotgan avlod vakillari – bu sindromga nisbatan yuqori moyillikka ega bo'lib, ularning psixik rivojlanishi bilan bog'liq xavflar borgan sari murakkablashmoqda. Internet qaramligi fenomeni ilgari asosan kompulsiv xatti-harakatlar, dopaminergik tizimdagagi buzilishlar va vaqtini boshqarishdagi qiyinchiliklar doirasida ko'rilgan bo'lsa, bugungi kunda u shaxsning butun psixologik arxitekturasiga, uning ijtimoiy rol identifikatsiyasiga va emotsiyonal-empatik faoliyatiga keng ko'lamda ta'sir ko'rsatmoqda<sup>[1]</sup>. Bu esa o'z navbatida internetdan faqatgina texnologik vosita sifatida foydalanish doirasidan chiqib, uni shaxsiyat taraqqiyotining asosiy muhitiga aylantirmoqda. Ayniqsa, pandemiya davrida global miqyosda kuzatilgan ijtimoiy chekinish va uzoq muddatli onlayn o'qish tajribalari yoshlarning real hayotdagi ijtimoiy ko'nikmalarini jiddiy darajada susaytirgani, ular orasida psixologik izolyatsiyaga moyillik kuchaygani ko'plab empirik tadqiqotlar orqali tasdiqlangan.

Zamonaviy Maugli sindromining shakllanishida asosiy determinant omil sifatida virtual reallikni real ijtimoiy muhitga nisbatan afzal ko'rish, shaxslararo muloqotdan chekinish, hissiy befarqlik va empatiya tanqisligi, atrof-muhit bilan ijtimoiy uyg'unlikning buzilishi, shuningdek, shaxsiy tajriba va ong jarayonlarida yuzaga kelayotgan patologik deformatsiyalar qayd etiladi<sup>[2]</sup>. Bu holatlar o'z navbatida o'smir va yoshlarning hissiy barqarorligiga, kognitiv jarayonlariga, shaxsiy identitetga ega bo'lishiga, o'z-o'zini anglashga va ijtimoiy moslashuv darajasiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, zamonaviy raqamli jamiyatda bolalar va o'smirlar texnologik muhit bilan endigina tanishayotgan emas, balki to'liq integratsiyalashgan holatda o'smoqdalar. Bu esa ularning psixologik rivojlanishidagi asosiy tayanch bo'g'lnlarni sun'iy muhit asosida shakllanishiga olib keladi<sup>[3]</sup>. Ayniqsa, erkak va ayol rollari, shaxsiy chegaralar, ijtimoiy mas'uliyat, konfliktga bardoshlik va boshqa psixososial komponentlar virtual muhitda sun'iy tarzda modellashtiriladi yoki mutlaqo yo'qligi sababli real hayotda qo'llanilishi uchun yetarli tajriba shakllanmaydi. Bunday holat yosh shaxsiyatlarning qobiqsiz, ichki tayanchlardan xoli holatda shakllanishiga olib keladi. Bu esa ijtimoiy-psixologik degradatsiyaga, ya'ni psixik rivojlanishning regressiv trayektoriyasiga olib keladi.

Internetga qaramlik shunchaki kompulsiv xatti-harakatlar to'plami emas, balki shaxsiyatda yangi, patologik shakllanishlar tizimining asoschisi bo'lib chiqmoqda<sup>[4]</sup>. Bu holatda zamonaviy Maugli sindromi nafaqat individual psixologik muammo, balki jamiyat darajasidagi ijtimoiy-psixologik xavf bo'lib qolmoqda. Shaxslarning bunday holatlarga tushib qolishi ularning ijtimoiy samaradorligini pasaytiradi, kognitiv salohiyatini cheklaydi, emotsiyonal munosabatlar tizimini buzadi va hayotdan qoniqish hissining yo'qolishiga olib keladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – yoshlari o'rtasida zamonaviy Maugli sindromining shakllanishiga olib kelayotgan internet qaramligi va psixologik izolyatsiya omillarini aniqlash, ushu sindromning klinik-psixologik xususiyatlari tahlil qilish, uni aniqlashda qo'llaniladigan diagnostik mezonlarni asoslash hamda psixokorreksion va psixoreabilitatsion yondashuvlarni ilmiy asosda ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari zamonaviy raqamli muhitda psixologik salomatlikni saqlash, yoshlari ongingin sog'lom shakllanishini ta'minlash va internetdan xavfsiz foydalanish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, internet qaramligi yoshlarning identitetini inqirozga uchratishi va psixologik izolyatsiya holatlarini kuchaytirishi lozim bo'lgan fenomendir. Bu borada birinchi muallif sifatida KuanYing Hsieh va hamkasblarining tadqiqotlari alohida e'tiborga loyiq. Ular kollej yoshidagi 500 nafarga yaqin respondentlarda SelfConcept and Identity Measure, Acceptance and Action Questionnaire-II, va Internet Addiction Scale orqali identitet chalkashligi (identity confusion), psychological inflexibility va experiential avoidance kabi komponentlar bilan internet qaramligi o'rtasidagi munosabatlarni strukturaviy tenglamalar modeli yordamida tahlil qildilar<sup>[5]</sup>. Natijalar shuni ko'rsatdiki, identitet diffuziyasi darajasi oshgani sayin, subyektlarning psixologik moslashuvchanligi pasayadi va bu internet qaramligiga bo'lgan moyillikni kuchaytiradi.

Ikkinci nuqtai nazar sifatida esa Esra Ceyhan va jamoasining universitet yoshlari orasida olib borgan tadqiqotini keltirish mumkin. Ular Problematic Internet Use Scale va Extended Objective Measure of Ego Identity Status yordamida identitet statuslari (moratorium, diffusion va boshqalar) bilan muammoli internet foydalanish o'rtasidagi bog'liqlikni aniqladilar. Natijalar shuni ko'rsatdiki, identity moratorium va diffusion holatlaridagi yoshlari internetga psixologik jihatdan ko'proq bog'lanishga moyil, bu esa regressiv rivojlanish strategiyalari va ijtimoiy izolyatsiyaga olib keladi<sup>[6]</sup>.



Hsieh va Ceyhan tadqiqotlari bir-birini to'ldiruvchi konseptual platformani tashkil etadi: birinchisi shaxsning identitet strukturasi va uning ichki moslashuvchanligi orqali internet qaramligi etiologiyasini ochib beradi, ikkinchisi esa identitet statusining ijtimoiy-psixologik kontekstdagi prediktor rolini ko'rsatadi. Bu ikki yondashuv zamonaviy Maugli sindromining klinik simptomatikasi – identitet diffuziyasi, kommunikativ buzilishlar, emotsional empatiya susayishi – ga asoslangan psixodiagnostik va reabilitatsion yondashuvlarni tanishtirishda zarur nazariy zamin yaratadi.

Hsieh va Ceyhan kabi olimlarning izlanishlari zamonaviy Maugli sindromini nafaqat simptomlar to'plami sifatida emas, balki etiologik va psixodinamik konseptual birlik sifatida tahlil qilish, shuningdek, yoshlar ongi va ijtimoiy salomatligini tiklash uchun fokuslangan psixokorreksion modelarni yaratish uchun muhim ilmiy poydevor hisoblanadi.

## TADQIQOT METOTOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda zamonaviy Maugli sindromining psixologik xususiyatlari va klinik ko'rinishlarini aniqlash va tahlil qilish maqsadida kompleks psixodiagnostik yondashuv asosida kvantitativ va kvalitativ metodlar integratsiyasi asosida ishlov berildi:

- birinchidan, yoshlar orasida internet qaramligi va psixologik izolyatsiya darajasini o'Ichash uchun Young's Internet Addiction Test (IAT), Beck Depression Inventory-II (BDI-II), va Social Isolation Scale (SIS) kabi standartlashtirilgan psixometrik testlar qo'llanildi;
- ikkinchidan, fenomenologik analiz va yarimstrukturalangan intervylular orqali zamonaviy Maugli sindromiga xos emotsional, kommunikativ va identitet buzilishlari chuqr kognitiv-kontekstual tahlida tahlil qilindi;
- shuningdek, natijalarni ishonchlilik va validlik mezonlari asosida statistik jihatdan baholash uchun SPSS 27.0 dasturida dispersion tahlil (ANOVA), korrelyatsion-regression modellash va Cronbach's Alpha ko'rsatkichlari orqali metodologik barqarorlik ta'minlandi, bu esa izlanish natijalarining ilmiy ishonchliligi va amaliy qimmatini belgilash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yoshlar orasida internet qaramligining yuqori darajada bo'lishi ularning psixologik izolyatsiyasi, emotsional empatiya pasayishi, identitet diffuziyasi va kommunikativ disfunktsiyalar bilan uyg'unlashgan holda "Zamonaviy Maugli sindromi"ning yuzaga kelishiga sabab bo'lib, bu holat kognitiv-behavioral, affektiv va sotsial-muomala jihatdan chuqr regressiv o'zgarishlar bilan namoyon bo'ladi, ayniqsa, real kommunikativ aloqalarning sustligi, virtual muhitga patologik bog'liqlik, va ijtimoiy rollarni anglashdagi noaniqliklar sindromning klinik psixologik portretini murakkablashtiradi.

Zamonaviy jamiyatda internet qaramligi va undan kelib chiqadigan psixologik izolyatsiya holatlari tobora ortib borayotgan sharoitda yosh avlod psixikasida yuzaga kelayotgan regressiv o'zgarishlarni chuqr anglash dolzarb masalaga aylangan. Ushbu kontekstda "Zamonaviy Maugli sindromi" kabi psixologik fenomenlarni chuqr tadqiq qilish ilmiy jamoatchilikda keng qamrovli babs-munozastralarga sabab bo'lmoqda. Xusan, amerikalik olim Sherry Turkle<sup>[7]</sup> o'zining "Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other" nomli fundamental tadqiqotida raqamlari texnologiyalar bilan haddan tashqari muloqot insonnинг emotsional rivojlanishiga jiddiy putur yetkazishini ta'kidlaydi. U yoshlar orasida yuzaga kelayotgan sotsial disfunktsiyani texnologiyaga patologik bog'liqlik bilan bevosita bog'laydi hamda shaxslararo munosabatlardagi empatik o'zaro ta'sirning kamayishi natijasida yuzaga kelayotgan identitet diffuziyasini ogohlantiruvchi xavf sifatida ko'rsatadi.

Ammo ushu yondashuvga qarshi nemis olimi, psixologik texnologiyalar tadqiqotchisi Jan-Hinrik Schmidt<sup>[8]</sup> esa nisbatan differensial yondashuvni taklif qiladi. U "Social Media: A Critical Introduction" asarida raqamlari platformalar yoshlar uchun nafaqat sotsializatsiya vositali, balki shaxsiy identitetni shakllantirish, o'zini ifodalash va kommunikativ kompetensiyanı rivojlanishish uchun yangi imkoniyatlar maydoniga aylanishi mumkinligini asoslaydi. Schmidtga ko'ra, internet faqat salbiy emas, balki shartli ijtimoiy-muhitiy omillar ta'sirida konstruktiv psixologik resurs vazifasini ham bajarishi mumkin.<sup>[9]</sup>

Turkle va Schmidt o'tasidagi bu munozara asosida shuni ta'kidlash kerakki, "Zamonaviy Maugli sindromi" fenomeni har doim ham internetdan foydalanishning o'zidan emas, balki uning ortida yotgan individual, oilaviy va ijtimoiy muhit omillarining murakkab o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelmoqda. Mazkur maqolada olib borilgan empirik kuzatishlar Turkle yondashuvining ko'plab jihatlarini qo'llab-quvvatlasa-da, Schmidtning differensial va ijtimoiy-konstruktiv nuqtai nazari ham yakkahol holatlarni tahlil qilishda foydali bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi<sup>[10]</sup>. Demak, zamonaviy yoshlar ongida shakllanayotgan regressiv sindromlarni tahlil qilishda bir yoqlama patologik yondashuv emas, balki integrativ va tizimli qarashlar muhim ilmiy metodologik zarurat sifatida qaralishi lozim.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Internet qaramligi va uning oqibatida yuzaga kelayotgan psixologik izolyatsiya holatlari zamonaviy yoshlar psixikasida chuqur va ko'p qirrali o'zgarishlarga olib kelayotgan dolzarb muammolardan biridir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, "Zamonaviy Maugli sindromi" – bu faqatgina metaforik atama emas, balki real hayotiy va klinik ko'rinishlarga ega bo'lgan murakkab psixologik holat bo'lib, u identitet diffuziyasi, emotsiunal aloqalarning susayishi, sotsial motivatsiyaning pasayishi va kommunikativ disfunktsiyalar bilan kechadi. Mazkur sindrom asosan raqamli makonga haddan ortiq bog'lanish, real ijtimoiy aloqalardan ajralish va o'z-o'zini anglash jaranining izdan chiqishi fonida shakllanadi.

Empirik tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu sindrom yosh avlodning ijtimoiy moslashuv darajasini pasaytiradi, o'quv va mehnat faoliyatidagi samaradorligini cheklaydi, shuningdek, psixik barqarorlik va emotsiunal muvozanatni izdan chiqaradi. Tadqiqotda qo'llanilgan diagnostik metodlar – psixometrik testlar, yarimstrukturali intervylar va kuzatuv asosida to'plangan dalillar zamonaviy Maugli sindromini aniqlashda aniq mezonlar ishlab chiqish zaruratiniz asoslaydi. Bundan tashqari, zamonaviy psixokorreksion yondashuvlar, jumladan, kognitiv-behavioral terapiya, art-terapiya, raqamli detoks va guruhiy psixoterapiya ushbu sindromni davolashda ijobji natijalar bergani aniqlandi. Shuningdek, bu muammoning oldini olishda oilaviy psixologik muhitni mustahkamlash, raqamli gigiyena bo'yicha ma'rifiy ishlarni kuchaytirish va ta'lif tizimida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish muhim ekani ta'kidlanadi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Таубаев Ж. Т., Мажитова А. Б. Tendency in use of eponyms based on modern literary names //“Абылай хан атындағы ҚазХҚкенеӘТУ Хабаршысы Филология ғылымдары сериясы. – 2022. – Т. 65. – №. 2.
2. Atxamjonovna B. D., Shohbozbek E. Respublikamizda maktabgacha ta'limda yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 221-228.
3. Steyn L., Barnard A. The coaching experience as identity work: Reflective metaphors //SA Journal of Industrial Psychology. – 2024. – Т. 50. – С. 2132.
4. Aminovna X. D. Internetga qaram shaxsning ijtimoiy-psixologik portreti: nazariy asoslar //Modern education and development. – 2025. – Т. 26. – №. 1. – С. 261-265.
5. Ulug'bekovna T. S., Kabilovich P. O. Yoshlar o'ttasida ijtimoiy tarmoqqa qaramlik muammo sifatida hamda internetga tobelik darajasi //Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences. – 2025. – Т. 4. – №. 41. – С. 49-55.
6. Diloram M., Shohbozbek E. O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy dunyo qarashini rivojlantirishning pedagogik asoslari //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 207-215.
7. Nasriddinova G. Internet tarmog'larini o'smirlar tarbiyasiga ta'siri //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – Т. 1. – №. 5. – С. 103-105.
8. Abdusattarovna O. X., Shohbozbek E. Ijtimoiy falsafada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 175-182.
9. Сосновцева М. С. The impact of socialization on the psyche and development of children //СибАДИ. – 2020. – С. 364.
10. Petrova E., Gnatik E. The Transformation of the Environment in the Digital Age //5th International Conference on Contemporary Education, Social Sciences and Humanities-Philosophy of Being Human as the Core of Interdisciplinary Research (ICCESSH 2020). – Atlantis Press, 2020. – С. 131-134.

- 13.00.00** Pedagogika fanlari
- 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03** Maxsus pedagogika
- 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07** Ta'limda menejment
- 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00** Tarix fanlari
- 19.00.00** Psixologiya fanlari
- 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00** Kimyo fanlari
- 03.00.00** Biologiya fanlari
- 09.00.00** Falsafa fanlari
- 10.00.00** Filologiya fanlari
- 11.00.00** Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.